

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilda Andijon viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 68 223,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yil bilan taqqoslaganda 5,1 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2022- yil narxlariga nisbatan 114,9 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Andijon viloyatining qo'shgan hissasi 6,4 % ga yetdi.

## 2023- yilda Andijon viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da
	2022- yil	2023- yil	
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>56 488,3</b>	<b>68 223,4</b>	<b>105,1</b>
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	54 232,8	65 654,6	105,1
mahsulotlarga sof soliqlar	2 255,5	2 568,8	106,1
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>54 232,8</b>	<b>65 654,6</b>	<b>105,1</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>21 653,7</b>	<b>25 165,7</b>	<b>104,1</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>16 715,6</b>	<b>21 501,7</b>	<b>106,6</b>
sanoat	13 785,3	18 311,8	107,3
qurilish	2 930,3	3 189,9	103,2
<b>xizmatlar</b>	<b>15 863,5</b>	<b>18 987,2</b>	<b>104,9</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3 337,7	4 053,0	109,8
tashish va saqlash, axborot va aloqa	2 659,1	3 212,7	108,6
boshqa xizmat tarmoqlari	9 866,7	11 721,5	102,2

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 20 313,6 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 2,9 % ga yuqoridir.

## Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



## Aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % hisobida)



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2022- yil	2023- yil
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,0	96,2
mahsulotlarga sof soliqlar	4,0	3,8
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>39,9</b>	<b>38,3</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>30,8</b>	<b>32,8</b>
sanoat	25,4	27,9
qurilish	5,4	4,9
<b>xizmatlar</b>	<b>29,3</b>	<b>28,9</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6,2	6,2
tashish va saqlash, axborot va aloqa	4,9	4,9
boshqa xizmat tarmoqlari	18,2	17,8



2023- yilda hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 96,2 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,8 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 38,3 % ni, sanoat tarmog‘i 27,9 % ni, qurilish 4,9 % ni va xizmatlar sohasi 28,9 % ni tashkil qildi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2022- yil

4,0 %



39,9%

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

25,4%

Sanoat

5,4%

Qurilish

29,3%

Xizmatlar

2023- yil

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

38,3%

Sanoat

27,9%

Qurilish

4,9 %

Xizmatlar

28,9 %

3,8 %




● Yalpi qo‘shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i (1,5 f.p., 2022- yilda – 1,3 f.p.), sanoat tarmog'i (1,8 f.p., 2022- yilda – 4,4 f.p.), qurilish tarmog'i (0,2 f.p., 2022- yilda – 0,5 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi (1,4 f.p., 2022- yilda – 1,8 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.


Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2022- yilda –0,5 f.p.)ga ko'paydi.

## 2023- yil uchun YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)




2023- yilda YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 104,1 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 38,3 %), sanoatda – 107,3 % (27,9 %), qurilishda – 103,2 % (4,9 %), xizmatlar sohasida – 104,9 % ni (28,9 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 109,8 % (6,2 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 108,6 % (4,9 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 102,2 % dan (17,8 %) iborat bo'ldi.

## YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % da)



2023- yilda YAHM deflyatori indeksi 2022- yildagi narxlarga nisbatan 114,9 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 123,8 % va xizmatlarda – 114,1 % qayd etildi.

## YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilga nisbatan % da)



2023- yilda kichik tadbirkorlik 43 306,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi (2022- yilda – 36 370,2 mlrd. so‘m). YAHMdagi ulushi 66,0 % ni (2022- yilda – 67,1 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog‘liq.

## Kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan % da)

Hajmi, mlrd.so‘m

Ulushi, % da

2022- yil

36 370,2

67,1 %

2023- yil

43 306,2

66,0 %

